
NAVBATDAGI QABULDA TIBBIY KO'RIK HAM TASHKIL ETILDI

????Bugun hayotimizdan tobora chuqur o'rin olayotgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyil aholini qiynayotgan muammolarning o'z vaqtida hal etilishiga, odamlarning turmush sharoiti yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Bu borada esa tashkil etilayotgan qabullarning ahamiyati katta.

Aholi bilan bevosita ochiq muloqot qilish, mavjud muammolarni aniqlash va bartaf etish maqsadida Bosh prokuror o'rinbosari Salom Samadov rahbarligida, tuman hokimi va sektor rahbarlari ishtirokida Rishton tumani Xalq qabulxonasida navbatdagi fuqarolar qabuli o'tkazildi. Qabulda 50 nafarga yaqin fuqarolarning turli masalalardagi murojaatlari tinglandi.

Mazkur tadbirda murojaatlar asosan moddiy yordam olish, ishga joylashish, qurilish, tergov va sudga oid, shuningdek, majburiy ijro masalalariga oid bo'ldi.

Qabul davomida tumanda yashovchi aholi uchun sayyor tibbiy ko'rik tashkil etildi. Tibbiy ko'rikdan o'tgan 270 nafar fuqarolarning 6 nafariga respublika, viloyat shifoxonalarida davolanishlari uchun yo'llanma, 20 nafariga birlamchi tibbiy sanitariya muassasalarida ambulator davolanishi uchun tavsiyalar berildi.

Shuningdek, fuqarolarga 51 million 700 ming so'mlik bepul dori-darmon vositalari tarqatildi.

2024-10-12 11:53:08